



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

DINIY MANBALARDA EKOLOGIK MUAMMOLAR YECHIMINING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI

Turobova Zulfizar Ulug'bek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Maqolada global ekologik muammolarning yechimi diniy-falsafiy manbalar ("Avesto", Qur'oni Karim, hadislar) hamda Sharq mutafakkirlari qarashlari asosida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Tabiatdagi ekologik muvozanat ("mezon"), insonning Yer yuzidagi mas'uliyati ("xalifa" konsepsiyasi) va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari ochib berilgan. Muallif yoshlarning ekologik ong va madaniyatini yuksaltirishda diniy-axloqiy qadriyatlarining ijtimoiy ahamiyatini asoslagan.

Kalit so'zlar: ekologik muammo, diniy manbalar, ekologik madaniyat, ekologik ong, xalifa konsepsiyasi, mezon, isrof, antropogen ta'sir.

РЕШЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКАХ

Турובה Зульфизар Улугбек кизи

Бухарский государственный педагогический институт, базовый докторант

Аннотация

В статье с социально-философской точки зрения анализируются пути решения глобальных экологических проблем на основе религиозно-философских источников («Авеста», Священный Коран, хадисы) и взглядов мыслителей Востока. Раскрываются принципы экологического баланса в природе («мизан»), ответственности человека на Земле (концепция «халифа») и рационального использования ресурсов. Автор обосновывает социальную значимость религиозно-нравственных ценностей в повышении экологического сознания и культуры молодежи.

Ключевые слова: экологическая проблема, религиозные источники, экологическая культура, экологическое сознание, концепция халифа, мизан, истраф (расточительство), антропогенное воздействие.

ENVIRONMENTAL PROBLEMS SOLUTION IN RELIGIOUS SOURCES

Turobova Zulfizar Ulug'bek qizi

Bukhara State Pedagogical Institute, Doctoral Researcher

Abstract

This article provides a socio-philosophical analysis of solutions to global environmental problems, drawing upon religious and philosophical sources (such as the "Avesta", the Holy Quran, and Hadiths) alongside the perspectives of Eastern thinkers. It highlights the principles of ecological balance in nature ("mizan"), human responsibility on Earth (the "khalifah" concept), and the rational use of natural resources. Furthermore, the author substantiates the social significance of religious and moral values in fostering ecological awareness and sustainable culture among youth.

Keywords: environmental problem, religious sources, ecological culture, ecological awareness, khalifah concept, mizan, israf (wastefulness), anthropogenic impact.

Butun dunyoda ilmiy jamoatchilikning oldida turgan dolzarb masalalardan biri — bu ekologik barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq tadqiqotlarni yanada keng ko'lamda olib borishdan iborat. Zero, bugungi kunda barqaror ekologik vaziyatni, atrof-muhit musaffoligini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning muhim subyektiv omili bo'lgan ekologik ongni shakllantirish, rivojlantirish va yuksaltirish, shuningdek, "ekologiya sohasidagi ishlarning ahvolini yaxshilash" [1; 101–104-b.] dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilish orqali ularning atrof-muhit sofligini ta'minlashdagi mas'uliyatini yanada oshirib borish bugungi kunning asosiy vazifasiga aylandi.

Jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar shuni ko'rsatmoqdaki, tabiatga nisbatan antropogen ta'sirning kuchayishi bugungi ekologik vaziyatning izdan chiqishiga va bir qancha ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, atmosferaning ifloslanishi, havo haroratining oshishi, o'rmonlarning qisqarib borishi, tuproq degradatsiyasi, toza ichimlik suvi tanqisligi, ozon

qatlarning yemirilishi singari ekologik muammolar alohida e'tibor talab etadi. Shu jihatdan, bugungi kunda bu kabi muammolar yuzaga kelishining oldini olish, ijtimoiy taraqqiyot bilan atrof-muhitning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish orqali qulay tabiiy atrof-muhitni saqlab qolish, "tabiat-jamiyat-inson" [2; 205–206-b.] tizimida muvozanatga erishish bilan bog'liq masalalar yechimini topishda diniy manbalardagi muhim konstruktiv ahamiyatga ega ekologik g'oyalar alohida dolzarflik kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ekologik axloqiy qarashlar va madaniyatni shakllantirishda dinimizning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karim va hadislardan foydalanmog'imiz zarur. Bugungi kunda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasiga turlicha yondashuv va qarashlar mavjud. Tarixda ulamolarimizdan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, al-Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, G'azzoliy, Husayn Voiz Koshifiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiylarning asarlarida Qur'oni Karim va Hadisi shariflardan foydalangan holda komil inson tarbiyasiga qo'yiladigan talablar bayon qilingan.

Tabiat va borliqni asrashga undash, tabiiy omillardan tejamkorlik bilan foydalanish masalalari nafaqat ekolog yoki pedagoglarni, balki din peshvolarining ham diqqat markazida turganligi bizni quvontiradi. Keyingi vaqtlarda ommaviy axborot vositalari, internet saytlari orqali tabiatni asrash masalalariga nisbatan mavjud diniy qarashlarni o'ziga singdirgan maqolalarning e'lon qilinayotgani odamni quvontiradi. Albatta, texnologiya sohasidagi taraqqiyot, yangi energiya manbalarining kashf etilishi, yangi ma'danlar va kimyoviy moddalarning paydo bo'lishi, oqibatini o'ylamay tabiatdagi jarayonlarga aralashuv kabi holatlarning barchasi atrof-muhitni muhofaza qilish borasida nihoyatda tashvishli vaziyatni vujudga keltirdi.

Tabiiyki, mazkur muammo butun olamdagi yuz millionlab musulmonlarni ham, Islom ulamolarini ham tashvishga solmoqda va ular bu muammolarni hal qilishda Qur'oni Karim oyatlariga hamda Islom ta'limotlariga murojaat qilishmoqda [6].

Ushbu tadqiqot ekologik axloq, ekologik madaniyat va ularning diniy manbalardagi asoslarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini Qur'oni Karim oyatlari, sahih hadislar, shuningdek, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Imom G'azzoliy, Husayn Voiz Koshifiy, Mahmud az-Zamaxshariy va Jaloliddin Rumiylarning asarlarida [3; 108-b.] bayon etilgan ekologik-axloqiy tamoyillar tashkil etadi. Ushbu manbalar mazmuni diniy-axloqiy qarashlar orqali ekologik madaniyatning shakllanishini ochib berish maqsadida tizimli tarzda tahlil qilindi.

Natijalar. Qadimgi va o'rta asrlar diniy-falsafiy tizimlarida atrof-muhit muvozanati shunchaki tashqi omil emas, balki inson ma'naviy-axloqiy qiyofasining bevosita proyeksiyasi (aksi) sifatida talqin qilinganligi aniqlandi. Ayniqsa, Qur'ondagi "isloh" (tartibga solish) va "fasod" (izdan chiqarish) tushunchalari zamonaviy ekologiyadagi "antropogen barqarorlik" va "ekologik inqiroz" terminlarining ijtimoiy-falsafiy asosi ekanligi isbotlandi.

Islom falsafasidagi "xalifa" (Yer yuzidagi mas'ul vakil) konsepsiyasi insonga tabiat ustidan mutlaq hukmronlik emas, balki "mezon" (universal ekologik balans)ni saqlash bo'yicha ekologik menejment (boshqaruv) mas'uliyatini yuklashi falsafiy jihatdan asoslandi. Bu esa zamonaviy G'arb ekofalsafasidagi "antropotsentriзм" (insonni borliqning markazi deb bilish) va "biotsentriзм" (tabiatdagi barcha jonli mavjudotlar — inson ham, o'simlik ham, hayvon ham — teng huquqqa va ichki qiymatga ega) o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etuvchi teotsentrik-ekologik modeldir.

"Avesto"dagi to'rt unsur (suv, olov, yer, havo) muqaddasligi hamda hadislardagi isrofga qarshi kurash, ko'chat ekish amallari shunchaki individual ibodat elementi emas, balki jamiyatni barqaror ushlab turuvchi ijtimoiy-ekologik qadriyatlar (aksiologiya) tizimi ekanligi tizimlashtirildi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish talablari barcha fan yo'nalishlari, jumladan, ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirishning hududiy-geografik, etnografik-mental va ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Respublikamizda ta'lim oluvchilarning hududlaridagi hududiy-geografik, etnografik-mental xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ekologiya bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda o'z hissasini qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsad qilib olindi. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish, yosh avlodda tabiat oldidagi burch va undan qarzдорlik hissini shakllantirishda diniy-axloqiy tarbiya katta ahamiyatga ega.

Muhokama. Jahon ilm-fanida ekologik muammolar paydo bo'lishining oldini olish va yechimini

topish bo'yicha ilmiy asoslangan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, aholining ekologik ongi va madaniyatini shakllantirish, tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish, ekologik tanglikdan chiqish mezonlari bilan bog'liq tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Bunda esa xalq donishmandligining metodologik asosi bo'lgan diniy manbalardagi atrof-muhit, tabiat ne'matlariga inson munosabatini me'yorga keltirish, tabiat komponentlarining hosil bo'lishi bilan sarflanishi o'rtasidagi mutanosiblikni chuqur o'rganishga oid g'oyalarni amaliyotga joriy qilish aholining ekologik tafakkurini ijobiy tomonga o'zgartirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli diniy manbalardagi ekologik muammolar bilan bog'liq bo'lgan tabiat va inson munosabatlari uyg'unligi muammosini ilmiy jihatdan tadqiq etish obyektiv zaruriyat bo'lib qolmoqda.

Diniy manbalarda ekologik muvozanat "olam tartibli" tushunchasi orqali ifodalanadi. "Olam tartibli" haqidagi g'oya barcha dinlarning diqqat markazida turadi. "Olam tartibli" tushunchasining o'zi zamonaviy iboralar orqali ifodalanganda "biosferaning hayot ko'rsatkichlari", "ekologik muvozanat", "tabiat qonunlari", "biosferaning imkoniyat chegaralari", "tabiiy-ekologik me'yor", "olamni oqilona boshqarish" kabi tushunchalar bilan sinonimdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Ekologik xavfsizlik, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish e'tiborimiz markazida turishi zarur" [2; 135-b.], deb ta'kidladi. Mazkur masala yechimi uchun Yer sayyorasida yashovchi har bir inson diniy e'tiqodidan, millati, tili, jinsidan qat'i nazar, tabiat borlig'i va uning sifat ko'rsatkichlari uchun mas'uldir. 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida O'zbekiston tomonidan taqdim etilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" [1; 101-b.] rezolyusiyasi qabul qilindi. Mamlakatimizda turli diniy konfessiyalar vakillari hamda turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlash, shu jumladan, tabiat borlig'ini asrash — biosferani noosferaga aylantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Ekologik muammolarni bartaraf etish va atrof-muhitni asrashda diniy manbalar ("Avesto", "Tavrot", "Qur'oni Karim" va hadislar)dagi tabiatning barcha ne'matlariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, insonning tabiat olami uchun mas'ulligi, tabiat manbalarini ehtiyoj doirasida ishlatishning muvofiqlashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi diniy-ekologik paradigmalarining ijtimoiy ahamiyati falsafaning deterministik qonuniyati asosida ochib berilgan; tabiatga ziyon keltirgan shaxsga nisbatan jazo choralari mavjudligi, ekologik faollikni rag'batlantirish kabi ekologik-huquqiy normalarga rioya qilishning birlamchi ko'rinishlari zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da ilmiy asoslanganligi isbotlangan.

Bizga ma'lumki, islom dini ezgulikka asoslangan bo'lib, insonlarni halollikka, poklikka, tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lishga da'vat etadi. Hadislarda Payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Pok bo'linglar, zero Islom pok dindir va faqat pok kishilar jannatga kirur" [3; 55-b.]. Islom dini odamlarni atrof-muhitni asrashga, hayvonot va o'simlik dunyosiga zarar yetkazmaslikka, ne'matlardan o'z ehtiyoji uchun foydalanganda isrof etmaslikka, Alloh yaratgan tabiatdagi muvozanatni va jipslikni buzmasdan ulardan to'g'ri foydalanishga, ona zaminga mehr-muhabbatli bo'lishga va tabiatdan oqilona foydalanishga chaqiradi.

Jumladan, Qur'oni Karimda barcha jonzotlar insonlar kabi "ummat" ekani ta'kidlanadi. Aynan shu ta'kid insonni o'zi kabi ummat bo'lgan barcha jonli mavjudotga nisbatan mehribon bo'lishga undaydi. Bu xususda Alloh taolo "An'om" surasida bunday deydi: "Yer yuzidagi har bir jonzot va ikki qanoti ila uchuvchi qush borki, hammasi siz kabi ummatlardir" (38-oyat), ya'ni hayvonlarning har bir turi yoki oilasi alohida olingan ummat hisoblansa, aynan shu hukm bilan ular boshqa ummatlar orasida yashashga, mavjudlik haqqiga egadir [4; 85-b.].

Islom dinida hayvonot olamiga alohida e'tibor berilgani kabi nabotot olamiga ham juda katta urg'u beriladi. Unga ko'ra, nabotot olami Allohning insonga ato qilgan ulug' ne'matlaridan biri bo'lib, bu olam bo'lmasa, yer yuzida hayot bo'lmas edi. Jumladan, "Zumar" surasi 21-oyatda: "Alloh osmondan suv tushirib, uni yerdagi manbalardan oqizib qo'yganini ko'rmadingizmi?! So'ngra u ila turli rangdagi ekinlarni chiqaradi. Keyin u quriydi. Bas, uni sarg'aygan hoida ko'rursan. So'ngra uni quruq cho'pga aylantirur. Albatta, bunda aql egalari uchun eslatma bordir", deb aytilgan. Shuning uchun ham Alloh bu olamni insonga hayot vositasi, unga va chorvasiga rizq qilib bergani haqida ko'p g'oyalar ilgari surilgan. Ko'rinish turibdiki, atrof-muhitni toza saqlash, tabiatni muhofaza qilish, Alloh in'om etgan hayvonot va nabotot olami inson manfaatlariga xizmat qiladi. Xususan, "U quyosh va oyni muttasil harakatlantirib, sizga beminnat xizmatkor qilib qo'ydi. Shuningdek, sizga kecha ila kunduzni ham beminnat xizmatkor qilib qo'ydi. Va U sizga barcha so'ragan narsalaringizdan berdi. Agar Allohning ne'matlarini sanasangiz, sanog'iga yeta olmassizlar. Albatta, inson o'ta zolim va o'ta noshukrdir" (Ibrohim surasi, 33–34-oyatlar).

“Va sizga osmonlardagi narsalarni va yerdagi narsalarni – hammasini O‘z tomonidan beminnat xizmatkor qilib qo‘ydi. Albatta, ana shunda tafakkur qiladigan qavmlar uchun oyat (belgi)lar bordir” (Josiya surasi, 13-oyat) kabi misollarni ham keltirib o‘tish mumkin [4; 85-b.].

Yer yuzidagi barcha narsalar inson uchun yaratilgan, ularga oqilona yondashgan holda, to‘g‘ri va yaxshi munosabatda bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Zero, Alloh taolo “Baqara” surasining “U yer yuzidagi barcha narsani sizlar uchun yaratgan” deb boshlanadigan 29-oyatida inson uchun, uning tasarrufi va foydasi uchun yaratgan narsalarga, jumladan, yer osti boyliklari va konlarga ishora qiladi.

“Baqara” surasi 30-oyatida inson yer yuzida uni obod qilish uchun yuborilgan o‘rinbosar vakil etib tayinlanganligi qayd etilgan. Bu esa insoniyat uchun ayri mas‘uliyat hisoblanadi. Tabiiy boyliklar – suv, havo, o‘simlik va hayvonot olami Allohning ne‘mati hisoblanadi. Ularni asrash, tejash va isrof qilmaslik islom axloqining muhim tamoyillaridan biridir.

Bugungi kunda G‘arb olimlari ekologiya fanining poydevorini qo‘ygan, bu soha bo‘yicha muhim ko‘rsatmalarni bergan kishi Muhammad sollallohu alayhi vasallam bo‘lganliklarini e‘tirof qilmoqdalar. Bu zoti bobarakotning ko‘plab hadislarida tabiatni asrashga, uni iflos qilmaslikka doir ko‘rsatmalar, buyruqlar va tavsiyalarni ko‘ramiz. Darhaqiqat, Nabiy sollallohu alayhi vasallam bizga yo‘llarni, ko‘chalarni ozoda tutish, yo‘ldan aziyat beruvchi narsalarni olib tashlashga buyurib, bu ish sadaqaning bir turi ekanligini ta‘kidlaganlar. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan hadisda shunday deganlar: “Yo‘ldan aziyat beruvchi narsani olib tashlashing ham sadaqadir” [8].

Tadqiqotchi Fransiska de Shatel o‘zining “Muhammad alayhissalom tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha yetakchidir” nomli kitobida shunday deydi: “Muhammad sollallohu alayhi vasallam yerdan va suvdan to‘g‘ri foydalanishga barchani chorlab kelgan kuchli da‘vatchilardan biri edilar. Shuningdek, hayvonlar, o‘simliklar va qushlar bilan chiroyli muomala qilishga ham barchani chaqirgan kishidirlar. Hatto, ba‘zi hadislaridagi fikrlar atrof-muhit masalalari bo‘yicha zamonaviy munozaralarga o‘xshaydi”.

Fikrning isboti sifatida quyidagi hadisga e‘tibor qaratsak: “Agar bir kishi bir daraxt ekib, undan inson, hayvon yoki qush foydalansa, bu uning uchun sadaqadir” (Imom Buxoriy).

Yana bir hadis: “Qiyomat turgan bo‘lsa ham, agar biringizning qo‘lida bir ko‘chat bo‘lsa va uni ekishga ulgura olsa, albatta uni eksin” (Imom Buxoriy, “Al-Adab al-Mufrad”).

Imom Bayhaqiydan kelgan hadisda: “Yeti narsa borki, banda vafot etganidan so‘ng ham qabrida yotganida uning ajri davomli unga yetib turadi: kim ilm o‘rgatsa, yoki anhor kavlasa, yoki quduq qazisa, yoki xurmo daraxti eksa, yoki masjid qursa, yoki Qur‘on mus‘hafi meros qolsa, yoki o‘zidan keyin uning uchun istig‘for aytadigan farzand qoldirsa”.

Hadisda zikr qilingan “daraxt ekish” amali zamonaviy ekologik ilmiy mezonlar bilan qaralganda ham atrof-muhitni muhofaza qilishning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu nafaqat diniy savobli amal, balki ilmiy jihatdan insoniyat kelajagini himoya qiluvchi ekologik mas‘uliyat demakdir.

Bundan tashqari, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotlarida suvni isrof qilmaslik, hayvonlarga mehr ko‘rsatish, daraxt ekish kabi ko‘plab ekologik qadriyatlar namoyon bo‘lgan. Musulmon olimlari o‘rta asrlarda ekologik tafakkur rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy va Forobiy o‘z asarlarida tabiat ilmlarini chuqur o‘rgangan. Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida sog‘liqni saqlash bilan birga havoning tozaligi, suv gigiyenasi, o‘simliklarning foydasi haqida so‘z yuritgan. Sharq me‘morchiligida ham ekologik yechimlar mavjud edi. Masalan, hovli shaklidagi uylar, bog‘lar, ichimlik suvlarining tabiiy oqimini nazorat qilish tizimlari barpo etilgan.

Imom Nasoiy Ash-Shurayda roziyallohu anhudan qilgan rivoyatda: “Men Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning: ‘Kimki chumchuqni sababsiz o‘ldirsa, qiyomat kuni Allohga: “Ey Robbim, falonchi meni manfaat uchun emas, o‘ynab o‘ldirdi”, deb shikoyat qiladi’, deganlarini eshitdim”, deyilgan.

Islomdagi hayvonlarga mehribonlik va yaxshi munosabat faqat ulardan insonlarga yetadigan manfaat bilan bog‘liq emas, balki musulmonlar barcha hayvonot olamiga, hatto inson ulardan bu dunyoda hech qanday manfaat kutmasa ham, yaxshi munosabatda bo‘lishga buyurilgan [8].

Abu Said Sa‘d ibn Sinon al-Xudriy raziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “(Ziyoni tegmaganga) zarar bermoq ham, (ziyoni tekkanga g‘ayrisha‘iy) zarar yetkazmoq ham yo‘qdir!” (Ibn Moja, Doriqutniy va boshqalar rivoyati).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: “Musulmonlar uch narsada: o‘t-o‘lan, suv va olovda bir-birlariga sherikdirlar” (Abu Dovud rivoyati) [10].

Yuqoridagi hadislar asosida ulamolar suv, o‘t-o‘lan, tuz va olov xususida fatvo berganlar.

Suv. Abu Hanifa va Shofe‘iy fikrlariga ko‘ra, suv egasi oqar yoki qaynab chiquvchi (ya‘ni buloq) suvining ortiqchasini — garchi o‘z yeriga tegishli bo‘lsa ham — man qila olmaydi. Biroq u ekinni sug‘orish

uchun suvini tekinga berishga majbur emas. Imom Ahmad nazdida esa ortiqcha suvni ichish uchun ham, mol yoki ekinni sugʻorish uchun ham tekinga berishi shart. Suvni bermay qoʻyish oʻt-oʻlanning yoʻq boʻlishiga olib borishi mumkin.

Imom Molik aytadilar: Suv egasi, yaʼni uning oqar joyi yoki qaynab chiqadigan bulogʻining sobibi faqat qiynalib qolgan kishigagina ortiqcha suvini tekinga berishga majbur. Hech kimning mulki boʻlmagan ortiqcha suv esa hammaga berilishi shart.

Oʻt-oʻlan. Shofeʼiy aytadilar: “Faqat qarovsiz yerning oʻt-oʻlanigina hech kimdan man qilinmaydi. Qolgan yerlarning ortiqcha oʻt-oʻlani berilmaydi”. Abdulloh ibn Abbosdan (r.a.) rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Seni ikki hislat – faxrlanish va isrofgarchilik xatoga boshlamasa, xohlaganingni yeb, xohlaganingni ichaver”, deganlar (Imom Buxoriy rivoyati). Faxri koinot aytganlaridek: “Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilik va faxrga oʻtmanglar”; “Kim hayotda tejamkor boʻlsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi”. Yana bir hadisda: “Isrofgar jannatga kirmaydi”, deyilgan [10].

Islom taʼlimotida tabiat va atrof-muhitni asrash masalasi muhim axloqiy va ijtimoiy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Qurʼoni Karim oyatlarida ekologik muvozanat, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, buzilishning oldini olish va insonning Yer yuzidagi masʼuliyati koʻp marotaba taʼkidlanadi. Ushbu gʻoyalar zamonaviy ekologik etikaga yaqin boʻlib, inson faoliyatining barqaror rivojlanishi uchun muhim konseptual asos hisoblanadi.

Yerning muvozanatini buzmaslik tamoyili. Qurʼonda atrof-muhitni asrashning asosiy tamoyili sifatida tabiatdagi “isloh” va “fasod” tushunchalari yoritiladi. Alloh taolo: “Yer isloh qilinganidan keyin unda buzgʻunchilik qilmanglar” (Aʼrof, 7:56), deya [11; 89–90-b.] insonning faoliyati tabiatga zarar yetkazmasligi lozimligini taʼkidlaydi. Bu oyat ekologik tizimlar tabiatan mukammal muvozanatda yaratilganini, ularning buzilishi esa inson omiliga bogʻliqligini koʻrsatadi. Shuningdek, Ar-Rum surasida: “Quruqlik va dengizda buzuqlik odamlarning oʻz qoʻllari bilan qilgan ishlaridan zohir boʻldi” (Rum, 30:41), deya [11; 89-b.] ekologik izdan chiqishning antropogen omillar natijasi ekanligi aytiladi. Ushbu oyat hozirgi global ekologik muammolar – atmosferaning ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, tuproq degradatsiyasi kabi jarayonlar inson faoliyati mahsuli ekanini islom manbalari oldindan anglatganini koʻrsatadi.

Muqaddas kitobimiz Qurʼoni Karimning ikki yuz ellik oyatida tabiat, uni asrab-avaylash mavzulari zikr etilgani Islomning bu masalaga qanchalik katta eʼtibor qaratishini koʻrsatib turibdi. Har birimizga maʼlumki, Alloh taolo olamni ajoyib aniqlik bilan va oʻzaro bogʻliq holatda yaratgan. Bu haqida Qurʼoni Karimning “Qamar” surasi 49-oyatida shunday marhamat qilingan: “Albatta, Biz har bir narsani oʻlchov bilan yaratdik” [11; 89–90-b.]. Demak, dunyodagi har bir narsa: suv ham, yer ham, togʻ ham, hayvonot-u nabotot ham Alloh taolo tomonidan oʻlchov bilan va bir-biriga bogʻliq qilib yaratilgan. Agar bu bogʻlanish bir oz boʻlsa ham buzilsa, insoniyat uchun qator jiddiy muammolar kelib chiqadi. Shuning uchun har bir inson dunyoni, tabiatni asrab-avaylashga qattiq harakat qilmogʻi lozimdir.

Qurʼoni Karimda ekinlar, hayvonot va tabiiy resurslarni muhofaza qilish tamoyili ilgari suriladi. Al-Baqara surasida tabiatga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xatti-harakatlar keskin qoralangan: “U (buzgʻunchi) ketganidan soʻng yer yuzida buzgʻunchilik qilishga, ekinlarni va nasllarni halok qilishga intiladi. Alloh buzgʻunchilikni yoqtirmaydi” (Baqara, 2:205) [11; 90-b.]. Bu oyat zamonaviy ekologik talafotlar – oʻrmonlarning kesilishi, hayvonlar genofondining yoʻqolishi va qishloq xoʻjaligi yerlarining talon-toroj qilinishiga bevosita daxldor diniy-huquqiy asosdir. Islomda tabiat inson manfaatiga emas, balki Allohning omonati sifatida qaraladi.

Qurʼonda insonning ekologik masʼuliyati (xalifa konsepsiyasi) belgilab berilgan. Unda insonning tabiat oldidagi masʼuliyati quyidagicha taʼkidlanadi:

“U sizlarni Yerda xalifa qildi” (Anʼom, 6:165). “Xalifa” [11; 90–91-b.] tushunchasi bevosita hukmronlikni emas, balki masʼuliyatli boshqaruvni anglatadi. Bu qarash ekologik boshqaruvning zamonaviy tamoyillari – resurslardan oqilona foydalanish, barqaror ekologik siyosat yuritish va tabiiy zaxiralarni kelajak avlodlarga yetkazish konsepsiyasiga mos keladi.

Ekologik muvozanat va “mezon” konsepsiyasi. Ar-Rahmon surasida Alloh tabiatdagi muvozanatni “mezon” tushunchasi orqali izohlaydi: “(Alloh) osmonni koʻtardi va mezonni oʻrnatdi. Mezonga tajovuz qilmanglar” (Rahmon, 55:7–9) [11; 91-b.].

Bu oyatlar tabiatdagi fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarning aniq qonuniyatlarga boʻysunishini bildiradi. “Mezonga tajovuz qilmaslik” — ekologik muvozanatni buzmaslik, resurslardan haddan ortiq foydalanmaslik va tabiatga zarar yetkazmaslikdir.

Resurslardan oqilona foydalanish konsepsiyasi: Qur'onda insonning iste'mol etish faoliyati ham ekologik mezon bilan bog'lanadi: "Allohning rizqidan yenglar va ichinglar, lekin yer yuzida buzg'unchilik qilmanglar" (Baqara, 2:60) [11; 90-b.]. Isrof, ortiqcha iste'mol va tabiatga beparvolikning barcha ko'rinishlari man qilinadi. Bu oyat "barqaror iste'mol" (sustainable consumption) tamoyiliga mos keladi.

Yoshlarga tabiatni asrash qanchalar muhimligini diniy adabiyotlardan misollar keltirib tushuntirish bilan birga, aksincha bo'lsa, qanday jazo olishimizni ham tushuntirib o'tish lozimdir. "Zariyat" surasining oyati payg'ambarlar, farishtalar, oxiratga ishonmaganlarni qanday taqdir kutayotganiga bag'ishlangan bo'lib, unda aytiladiki: "Va albatta (Qiyomat kunida hisob-kitob qilinganidan keyin) jazo-mukofot voqe bo'lguvchidir" [11; 90-91-b.]. Ushbu oyatni ekologik muammolar haqida gapirilganda ham eslab o'tish maqsadga muvofiqdir. Yoshlarga tabiat ne'matlarini isrof qilish va unga ziyon yetkazgani uchun insonlar nafaqat vijdoni yoki qonun oldida, balki Qiyomat kunida ham javob berishlarini uqtirish ularda atrof-muhit, borliqqa nisbatan xushyorlik bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Suvni ortiqcha isrof qilish va ifloslantirish, suv havzalarini bulg'ash islom dini ta'limotida qattiq qoralangan. Bu haqda Tabaroniy rivoyat qilgan hadisda shunday deyilgan: "Payg'ambarimiz o'qar suvni iflos qilishdan qattiq qaytarganlar" (Imom Tabaroniy rivoyati) [13; 148-b.]. Yer sayyorasi, tabiat ne'matlaridan oqilona, "ehtiyoj doirasida", qanoat bilan, isrofgarchiliksiz foydalanilganda barcha insonlarning ehtiyojlarini qondirishga qodir ekanligi ko'rsatiladi. Shams Tabriziy so'zi bilan aytganda: "Robbim, barchamizga haddimizni bilib, mulkingda odob bilan yashamog'imizni nasib ayla!" deb me'yor odobi bilan yashamoqlikka chorlasa, Jaloliddin Rumiy o'z hikmatlarida suv qadrini ko'rsatib:

"Obi hayvon qiblayi jon, ey rafiq,

Suv ila yashnaydi bo'ston, ey rafiq",

deb yozadi. XI asrda yashab o'tgan ijodkor Fahriddin Gurgoniy o'z davrida suvni iflos qilmaslik haqida ulug' o'git sifatida:

"Bugun chashma suvni qilsang agar xor,

Boshqa icholmassan bu suvdan zinhor",

deb suvni iflos qilmaslik, uni asrashga chaqirgan.

Muoz ibn Jabal roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Uchta la'natlovchidan – suv boshiga, yo'lga va soyaga qazo-i hojat qilishdan saqlaninglar", dedilar (Abu Dovud rivoyati) [1; 150-b.]. Ya'ni, biror inson suv boshi, yo'l va soya joyga hojat chiqarsa, odamlarga ozor berib, ularning ko'nglini og'ritgan bo'ladi.

Natijada barcha uni la'natlaydi. Chunki hadisda sanalgan uch joy barchaning ehtiyoji tushgani uchun hammaga tegishli ekani anglaniladi. Bu hadisni sharhlagan ulamolarimiz la'natga qolish uchun hadisda sanalgan uch joyga hojat chiqarish shart emas, balki shu kabi joylarni iflos qilib, axlat va chiqindilar tashlash ham la'natga qolish uchun yetarli bo'ladi, deganlar. Shuni ta'kidlash joizki, atrof-muhitni toza tutish, chiqindilarni o'z vaqtida saranjom-sarishta qilish, iflosliklar va turli ko'zga ko'rinmas mikroblardan ehtiyot bo'lish ham tabiatni asrashda muhim ahamiyatga ega ekanini, barchamizni turli xil kasalliklarga chalinishdan asrashini yaxshi anglashimiz darkor.

"Avesto" – zardushtiylik dinining asosiy muqaddas kitobi; ba'zi adabiyotlarda u "Hayot yo'riqnomasi" deb ham atalgan. "Avesto" – tabiiy, falsafiy bilimlar, insonni, tabiatni ulug'lashtirish, muqaddaslashtirishga oid qadriyatlar madhiyasi, sharafnomasi deb ham ataladi. "Avesto"da xalqimizning eng qadimiy bayramlaridan biri bo'lgan "Navro'z" o'z aksini topgan. "Navro'z" (miloddan avvalgi VI asrdan boshlangan) ilk ekologik amaliyot – urug'larni saralash, ekin yerlarini tozalash, ekinga tantanali tayyorlanish, ko'chatlar ekish, eng sara daraxt navlarini payvandlash, gullar ekishda barcha insonlar faolligi, tabiat jonlanishi, uyg'onishiga yordam berish juda muhim qadriyat hisoblangan. Zardushtiylikda tabiatga, yerga, butun jonzotlarga, daraxt va o'simliklarga mehr bilan qarash targ'ib qilingan. Oddiy mehnatkash inson ulug'langan. Tabiat va uning ne'matlariga bo'lgan ezgu, oqilona munosabat "Avesto"dagi "Dehqonchilikning foydasi haqida" nomli maxsus bo'limda keng izohlangan. Olamning dastlabki besh unsuri – yer, olov, tabiat, suv va havo ulug'langan. Zardushtiylik ta'limoti behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik hujumlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi, ayniqsa, yilqichilikni yo'lga qo'yish, suvni muqaddas tutish shartligi ta'kidlangan. Zardushtiylik mohir sohibkor, bog'bon va dehqon bo'lganlar, uzoq vaqtgacha may tayyorlash, sotish ishlari bilan shug'ullanganlar: dayri mug'on, xarobot, piri mug'on va h.k. (Dayri mug'on – olovga e'tiqod qiluvchilar ibodatxonasi, otashxona; Borliq haqiqatining saqlovchisi, egasi; piri mug'on – mayxona sohibi, mayfurush; xarobot – xarobazor yoxud mayxona) [12; 213-b.].

Yahudiylarning muqaddas manbasida, ya'ni "Tavrot"da Muso payg'ambarning birinchi kitobi "Ibtido"ning "Dunyoning yaratilishi" deb atalgan birinchi bobida tun va kunning, osmon va yerning yaratilishi to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlarga duch kelamiz. Unda Yahve shunday deb xitob qiladi: "Er o'simliklarni ko'kartirsin: urug' beradigan o't-o'lanlar ko'paysin, mevasida urug'i bor turli-tuman mevali daraxtlarni undirsin", "kun-tun, osmon yoritqichlarini yaratib, fasllarga ajratdi" [14; 616–617-b.]. Yana Xudo aytdi: "Suv to'lda-to'lda jonivorlar bilan qaynasin, yer ustidagi osmon gumbazi bo'ylab qushlar uchsini", "Barakali bo'linglar, ko'payinglar, dengiz suvlarini to'lg'azinglar. Yer yuzida esa parranda ko'paysin", – dedi. Xudo keyin: "...odamni yaratdi. U dengizdagi baliqlar, ko'k yuzidagi parrandalar, chorvalar, butun yer yuzi va yerda harakat qiluvchi barcha maxluqot ustidan hokimlik qilsin", – dedi. Xudo odam uchun berilgan tabiat in'omlarini eslatib: "Mana, Men sizlarga butun yer yuzidagi urug' beradigan o't-o'lanning va urug'li meva beradigan daraxtning hammasini berdim, sizlarning iste'molingizga yaraydi. Shuningdek, tirik joni bo'lgan butun yovvoyi hayvonlarga va osmonda uchib yuruvchi barcha parrandalarga va yer yuzida harakat qiluvchi barcha maxluqlarga ham ozuqa bo'ladigan yemish maysalarning har turli navini yaratdim", – deb ta'kidladi [15; 2-b.]. Flora, fauna va insonni oziqlantiradigan tabiat komponentlarini ham yaratgani e'tirof etilmoqda, yana bir tomondan, ular orasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik, ya'ni determinizm tamoyili namoyon bo'lishini anglash qiyin emas. "Tavrot"da: "G'alla yanchayotgan ho'kizning og'zini to'sma", deyilgan bo'lib, bu esa insonlarga qo'l ostidagi jonzorlarga o'z navbatida zulm qilmaslik, ularga yaxshi munosabatda bo'lish kabi oliyanoblik g'oyalari bundan 3 ming yil oldin diniy manbalarda keltirilganini ko'rsatadi. Shuningdek, "Tavrot"dan so'ng eng mo'tabar va asosiy manba "Mishna" sanaladi. "Mishna" ibroniycha so'z bo'lib, lug'atda "o'rganmoq, takrorlamoq" ma'nolarini anglatadi. Oromiy tilida "qissa aytmoq", "o'rganmoq" va "ta'lim olmoq" ma'nolarini anglatadigan "mitna" so'zi aynan "Mishna"ning o'zlashtirilgan varianti sanaladi. "Mishna" so'zi istilohda avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tib kelayotgan yahudiylar diniga oid hukmlar, ta'limotlar, tafsirlar, izohlar, fatvo va vasiyatlar majmuasini anglatadi. "Mishna" yahudiylardagi muqaddas ta'limot – muqaddas kitob, ya'ni "Tavrot" oyatlari bilan bir xil kuchga ega. "Mishna" olti qism va 63 bo'limdan iborat. Zeraim – ekinlar va urug'lar qismi. Bu qism aynan ekinzorlar, dalalar, bog'lar bilan bog'liq diniy hukmlarni o'z ichiga olgan bo'lib, 11 bo'limdan iborat. Yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida "Tavrot"dagi ushbu jumalarni keltiramiz. Yahve: "Mana, men sizga yer yuzidagi har bir urug'ni va urug' beradigan mevali daraxtlarni beraman. Ular ovqatlanish uchun sizniki bo'ladi. Shuningdek, quruqlikdagi barcha hayvonlar, osmondagi barcha qushlar va hayot nafasi bo'lgan yer yuzida yuradigan barcha narsalarga men barcha yashil o'simliklarni oziq-ovqat uchun beraman" [15; 2-b.], dedi. Bundan ko'rinadiki, yahudiylar dinida ham yer yuzidagi barcha ne'matlar insonlarning ekologik barkamolligi uchun berilgan va ularga amal qilish har bir shaxsning majburiyati ekan, degan xulosaga kelamiz.

Diniy manbalarda ham, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ham hamohang, uyg'un bo'lgan "qizil tugun"ni payqadik. Agar diniy manbalarda "Har bir o'simlik yoxud tirik mavjudot sizlar kabi ummatlarimdir", deb ularni e'zozlashga da'vat etilsa, zamonaviy ilmiy asarlarda "biologik xilma-xillikni asrash" yoxud yuqorida keltirilgan har bir biosfera elementini asrashga oid sanalar tarzida bitta umumiy maqsad yotadi: u ham bo'lsa biosferani bir butunligicha asrash muammosi.

Biz buni to'g'ri anglagan holda, yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ma'naviy qadriyatlarimizda ilgari surilgan g'oyalarga tayanishimiz kerak. Bu g'oyalar yoshlarning tabiatga va hayvonot dunyosiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishda, umuman, "tabiat–jamiyat–inson" tizimi munosabatlarini uyg'unlashtirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Qur'oni Karimda atrof-muhitni asrashga oid g'oyalar chuqur ekologik mazmunga ega bo'lib, insonning Yer yuzidagi faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish zarurligini ko'rsatadi. Qur'onda tabiatning buzilishiga qarshi qat'iy ogohlantirishlar, resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha aniq ko'rsatmalar mavjud. Ushbu diniy-nazariy asoslar zamonaviy ekologik etikada muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Diniy adabiyotlar boladagi ekologik tarbiyani shakllantirish uchun muhim vosita bo'la oladi. Darslarda shunday adabiyotlardan foydalanilganida o'quvchi-yoshlar atrofidagi olam, tabiatdagi narsalar, uning boyliklari haqida ma'lumotlarni egallash bilan birgalikda, tabiatni, uning boyliklarini ardoqlashni, asrashni o'rganadilar. Tabiatni asrash burchimiz ekanligini har birimiz yaxshi bilamiz, ammo unga hamisha ham amal qilmaymiz. Ekologik madaniyat diniy qarashlar orqali singdirilganda yoshlarda mas'uliyat hissi ortadi. Uning tabiatga nisbatan munosabati Yaratgan tomonidan nazorat qilinayotganini his qiladi. Natijada tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish doimiy odatga aylanadi. Islom dini xalqimiz hayotida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, ekologik tarbiyada ham diniy qarashlardan keng foydalanish maqsadga

muvofigdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, diniy-falsafiy manbalardagi ekologik g‘oyalar – kelajak avlodga inqirozga uchragan tabiatni emas, balki muvozanati saqlangan yashash muhitini qoldirishning ma’naviy-axloqiy vositasidir. Shu sababli har bir fuqaro o‘z yashash joyidan boshlab butun borliqdagi ekologik muvozanat va uning buzilish oqibatlarini haqida qadimiy qadriyatlarimiz prizmasi orqali xabardor qilinishi zarur. Barqaror rivojlanish, “mezon” (universal balans) va “isloh” (obodonlashtirish) tamoyillarini hayotiy e’tiqod deb bilgan shaxslar ekologik mas’uliyatli xatti-harakatlar namoyon etish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu xatti-harakatlar ajdodlarimiz ma’naviy merosidan, tabiatni omonat deb bilish tuyg‘usidan, ekologik bilim, qadriyatlar va ichki vijdoniy motivatsiyadan kuch oladi. Kelajak avlodga sog‘lom muhit qoldirish uchun ekologik ong, xabardorlik va tabiatga ijobiy munosabat milliy-ma’naviy qadriyatlar integratsiyalashgan ta’lim orqali shakllanishi shart. Shuning uchun qadimgi manbalardagi ekologik-etik normalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish yoshlarda shaxsiy ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim boshlang‘ich nuqtadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. B. 592.
3. No‘monov M. Islomda tabiatga munosabat. Toshkent: Movarounnahr, 2011.
4. Sayyid Mubashshir Taroziy. Sof tabiat dini / tarj. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: Hilol-nashr, 2019.
5. Islom dini va atrof-muhit: diniy ta’limot asosida tabiatni asrash mas’uliyati // Juyborikalon.
6. Tojiddinov A. A. Islomda tabiatga munosabat.
7. O‘rinboyeva M. S. Tabiatga ekologik munosabatlarning ma’naviy-axloqiy tamoyillari va mezonlari // Science and Education. 2020. Vol. 1. Issue 2.
8. Kahel A. Tabiatni asrashga oid 10 ta ilohiy ko‘rsatmalar / N. Iminjonov tarjimasini.
9. Djurakulov X. Yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirishda islom dinida ilgari surilgan g‘oyalardan oqilona foydalanish zarurati.
10. Qirq hadis / Imom Navaviy.
11. Qur’oni karim. O‘zbek tilidagi tarjimasini. Toshkent: Sharq yulduzi, 1992.
12. Farhangi zaboni to‘chiki (az asri X to ibtidoiy asri XX): dar 2 jild. Jild I–II. Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1969; Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2001. B. 213.
13. Abu Iso Termiziy. Sahihi Termiziy. Tanlangan hadislar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993. B. 148.
14. Bibliya. Tavrotdan Muso payg‘ambarning birinchi kitobi. Ibtido. Zabur. Turkiya: Muqaddas kitob jamiyati, 1995. B. 616–617.
15. Torah. The Five Books of Moses. Skokie, Illinois, USA: Varda Books, 2001. P. 2.